

Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun

X-LSX-M37-2022 -sonli SHARTNOMA

Samarqand sh.

“ 4 ” 06 2022-yil

Bundan buyon Buyurtmachi deb ataluvchi “Samarqand viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi” nomidan nizom asosida ish yurituvchi Bosh boshqarma boshlig‘i **N.Sanaqulov** orqali va bundan buyon Bajaruvchi deb ataluvchi “SAM PROJEKT BUNYODKOR” MCHJ nomidan nizom asosida ish yurituvchi direktori **J.M.Komilov** orqali O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan quyidagi shartnomani tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. “Bajaruvchi” “Buyurtmachi”ning topshirig‘i bo‘yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: № 91054 dagi **Samarqand viloyati AYBBning __- sonli yig‘ilish bayoni asosida 2022-yil** Paxtachi tumani umumfoydalanuvdagi xalqaro ahamiyatiga ega avtomobil yo‘lini joriy ta‘mirlash ishlari uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishni o‘z zimmasiga oladi.

1.2. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolanganidan so‘ng G‘aznachilikda ro‘yxatga olingan kundan boshlanadi.

2. Shartnoma bahosi va to‘lov qoidalari

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan **43 350 000** (qirq uch million uch yuz ellik ming) **so‘mni** tashkil qiladi.

2.2 Buyurtmachi shartnomani G‘aznachilik ro‘yxatidan o‘tgan kundan boshlab 10 (o‘n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 30 % miqdorida avans to‘lovini amalga oshiradi

2.3. Ishlar qiymatini ko‘paytirishga yyengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo‘lganda yoki ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o‘zgartirilganda shartnoma bahosi o‘zgartirilishi mumkin.

2.3. Har bir bosqichda (yoki 1-ilovada ko‘rsatilgan ko‘chalar) bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag‘i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

2.4. Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolanganidan so‘ng 15 bank kuni mobaynida Bajaruvchiga haq to‘lashni o‘z zimmasiga oladi.

2.5. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas. quyidagi hollar bundan mustasno:

ishlar qiymatini ko‘paytirishga yyengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo‘lganda;

ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o‘zgartirilganda.

3. Tomonlar majburiyatlari

3.1. Bajaruvchi ishlarni dastlabki ma‘lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, Buyurtmachi bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o‘z zimmasiga oladi.

3.2. Buyurtmachi ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan birlamchi ma‘lumotlar va materiallarni Bajaruvchiga taqdim qiladi.

3.3. Buyurtmachi shartnomada ko‘zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to‘lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko‘rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishida Bajaruvchiga yordam ko‘rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko‘zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, Bajaruvchining roziligisiz shartnoma bo‘yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma‘lumotlarni tarqatmaslikni o‘z zimmasiga oladi.

3.4. Buyurtmachi tomonidan avans to‘lovlari o‘z vaqtida o‘tqazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan birlamchi ma‘lumotlar va materiallarni Bajaruvchining talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to‘lovi va ma‘lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

3.5. Ushbu shartnoma bo‘yicha Bajaruvchi o‘z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo‘shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o‘z hisobidan qaytadan bajaradi.



3.6. Mazkur shartnomaning 2.4-bandi bajarilmagan holda Bajaruvchi buxgalteriya hisob-kitoblarini o'zaro solishtirish dalolatnomasi yoki bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomalari asosida undirishga to'liq haqli.

4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

4.1. Ishlar tugagandan so'ng Bajaruvchi Buyurtmachiga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

4.2. Buyurtmachi ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasini olgandan so'ng 10 kun mobaynida ishlarni qabul qilish va Bajaruvchiga imzolangan holda topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan holda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

4.4. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

4.5. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

5. Konfidensial ma'lumotlarni himoyalash

5.1. Ishlar bajarilishi davrida Bajaruvchi o'zi konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

6. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

6.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

6.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Buyurtmachi va Bajaruvchi ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qandaydir choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

6.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

7. Qo'shimcha shartlar

7.1. Bajaruvchi loyihani muddatidan oldin bajargan holda, Buyurtmachi uni mazkur shartnomaning 4-moddasiga asosan qabul qiladi va to'la to'lovni amalga oshiradi.

7.2. O'zaro muloqot yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda hal qilinadi.

7.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

7.4. Bajaruvchi mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, Buyurtmachini xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

7.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga va Bajaruvchining obyekt bo'yicha bajargan ishlariga nisbatan qo'llaniladi.

7.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi.



Kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shahar iqtisodiy sudida e'tiroz tartibiga rioya qilgan holda, ko'rib chiqiladi. E'tirozlar yozma ravishda taqdim qilinishi kerak va ularni ko'rib chiqish muddati e'tiroz bildirilgan tomon olganidan keyin 15 (o'n besh) kun muddatni tashkil etadi. Mazkur shartnoma bo'yicha nizo kelib chiqqan hollarda qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

7.7. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,04 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy so'mmasi shartnoma narxining 10 foizidan oshmasligi lozim.

7.8. Bajaruvchi tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,04 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy so'mmasi bajarilmagan ishlar qiymatining 10 foizidan oshmasligi lozim.

7.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

7.10. Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- Loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqiladigan ko'chalar ro'yxati

7.11. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

7.12. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

7.13 Ushbu shartnoma amal qilish muddati "4" 06 2022-yildan 31-dekabr 2022-yilgacha

7. Tomonlarning manzili va hisob raqamlari

«BUYURTMACHI»

Nomi: Samarqand viloyati avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi
Manzili: Samarqand sh. Nabiyeva ko'ch 3-uy
Shaxsiy x/r: 304510860184017045151118001
STIR (INN): 200711637
XXTK (OKNX): 97400
Tel/faks: 234-26-08, 243-26-59
Moliya Vazirligi Gaznachiligi
X/r: 23402000300100001010
Bank nomi: Markaziy bank XKKM Toshkent shahar boshqarmasi

Manzil: Samarqand shahar Ko'ksaroy maydoni,1

STIR (INN): 201122919

MFO: 00014

XXTK(OKNX): 97160

Tel: 231-11-52

Imzo: N. Sanaqulov

Huquqshunos (Imzo va F.I.SH.)

Litsenziya (diplom) № va berilgan sanasi:

Imzo qo'yilgan sana " " 2022-y.

Huquqshunos (Imzo va F.I.SH.)

Litsenziya (diplom) № va berilgan sanasi:

Imzo qo'yilgan sana " " 2022-y.

«BAJARUVCHI»

Nomi: « SAM PROJEKT BUNYOTKOR MCHJ »

Manzili: Samarqand sh. Nabiyeva kucha 3 uy

Bank nomi: Samarqand sh. AT Xalq Banki
Viloyati filiali

Xisob rakami: 20208000605108999001

MFO: 01005

STIR (INN): 306627639

OKED: 96130

Imzo:


J.M.Komilov

(F.I.Sh.)



“TASDIQLAYMAN”

Samarqand viloyati avtomobil yo‘llari
bosh boshqarmasi boshlig‘i



N.Sanaqulov

Paxtachi tuman umumfoydalanuvdagi xalqaro ahamiyatiga ega avtomobil yo‘llarini
joriy ta‘mirlash ishlari uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha
o‘tkazilgan komissiya yig‘ilishi

Nº 7 **BAYONI**

Samarqand shahri

« 4 » 06 2022-y.

Raislik qiluvchi N.Sanaqulov

Ishtirok etgan komissiya a‘zolari:

Mirzayev Akbar Yusupovich	Komissiya a‘zosi, Boshliq o‘rinbosari
Eshmamatov Farruxjon Fayzullayevich	Komissiya a‘zosi, bo‘limi boshlig‘i,
Xodjiyev Shuhrat Nasimovich	Komissiya a‘zosi, Bosh hisobchi,
Astanaqulov Dilmurod Sultanovich	Komissiya a‘zosi, Bosh mutaxassis,
Obidov Sultonxon Sobidxon o‘g‘li	Komissiya kotibi, Bosh mutaxassis

KUN TARTIBI:

2022-yil Paxtachi tuman umumfoydalanuvdagi xalqaro ahamiyatiga ega avtomobil yo‘llarini joriy ta‘mirlash ishlari uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha.

(N.Sanaqulov, A.Mirzayev, F. Eshmamatov, Sh. Xodjiyev, D. Astanaqulov)

Samarqand viloyati avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi tomonidan 2022-yil 23-mayda O‘zbekiston Respublikasi Tovar va xom-ashyo birjasining elektron portaliga umumfoydalanuvdagi xalqaro ahamiyatiga ega avtomobil yo‘lini joriy ta‘mirlash ishlari

uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha lot raqami № 22110012091054 raqami bilan e'lon joylashtirildi.

Mazkur lotlar bo'yicha 2022-yil 2-iyundagi eng yaxshi takliflarni tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari komissiyasining elektron portali orqali shakllangan bayonnomalariga asosan e'lon yakuniga ko'ra Komissiya a'zolari tomonidan "SAM PROJECT BUNYODKOR" MChJ g'olib deb topilganligini inobatga olib:

QAROR QILINDI:





1. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonunining 62-moddasi 3-bandiga asosan komissiya bayonnomasi davlat xaridlari elektron tizimiga muhokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnoma bo'yicha hech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmaganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bosh mutaxassis S.Obidovga:

Yuqoridagilardan kelib chiqib hamda komissiya a'zolarining 2022-yil 2-iyundagi elektron bayonnomalariga asosan g'olib "SAM PROJECT BUNYODKOR" MChJ bilan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda shartnoma tuzilsin.

3. Bosh mutaxassis S.Obidov sifat darajasi nazorat qilinsin.

Komissiya a'zolari

F.I.SH	Imzo	Lavozimi
Mirzayev Akbar Yusupovich		Bosh boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Eshmamatov Farruxjon Fayzullayevich		Avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularning texnik holatini qilish bo'limi boshlig'i
Xodjiyev Shuhrat Nasimovich		Bosh hisobchi
Astanaqulov Dilmurod Sultanovich		Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'limi bosh mutaxassisi

Komissiya kotibi, Bosh mutaxassis



S.Obidov